



PEDAGOG VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI KOMMUNIKATIV
MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xakimova Sarvinoz Sharifjon qizi

Namangan davlat Pedagogika institute Psixologiya yo'nalishi magistri

Email address: hakimovasarvinoz140@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagog va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ta'lim jarayonida samarali muloqotning o'rni hamda o'quvchi shaxsining rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik muloqotning asosiy tamoyillari, kommunikativ kompetentlik, empatiya, refleksiya va psixologik muhitning ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagog va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy kommunikativ munosabatlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *pedagogik muloqot, kommunikativ kompetentlik, o'quvchi shaxsi, empatiya, ta'lim jarayoni, psixologik muhit, refleksiya, motivatsiya.*

Abstract. *This article analyzes the psychological characteristics of communicative relations between a teacher and a student, the role of effective communication in the educational process, and its impact on the development of the student's personality. Also, the basic principles of pedagogical communication, communicative competence, empathy, reflection, and the impact of the psychological environment on the effectiveness of education are covered based on scientific sources. According to the results of the study, positive communicative relations between a teacher and a student are an important factor in improving the quality of education, increasing students' motivation, and ensuring their personal development.*

Keywords: *pedagogical communication, communicative competence, student personality, empathy, educational process, psychological environment, reflection, motivation*

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические характеристики коммуникативных отношений между учителем и учеником, роль эффективной коммуникации в образовательном процессе и её влияние на развитие личности ученика. Также на основе научных источников рассматриваются основные принципы педагогической коммуникации, коммуникативной компетентности, эмпатии, рефлексии и влияние психологической среды на эффективность обучения. По результатам исследования установлено, что позитивные коммуникативные отношения между учителем и учеником являются важным фактором повышения качества обучения, повышения мотивации учащихся и обеспечения их личностного развития.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ключевые слова: педагогическая коммуникация, коммуникативная компетентность, личность ученика, эмпатия, образовательный процесс, психологическая среда, рефлексия, мотивация

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar pedagog shaxsiga qo'yilayotgan talablarning mazmun va mohiyatini yanada kengaytirmoqda. Bugungi kunda pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o'quvchilarning intellektual, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim subyekt sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagog va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan o'zaro muloqot va munosabatlar nafaqat bilimlarning o'zlashtirilishiga, balki o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning motivatsiyasi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Inson hayotida muloqot eng muhim psixologik jarayonlardan biri sanaladi. Muloqot orqali shaxslar o'zaro axborot almashadi, hissiy tajribalarini ifodalaydi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi hamda birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta'lim muassasalarida esa muloqot pedagogik faoliyatning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogning o'quvchilar bilan qanday munosabat o'rnatishi, ularga qanday murojaat qilishi, fikrlarini qay darajada tinglashi va qo'llab-quvvatlashi o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabatini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Psixologiya fanida kommunikativ munosabatlar shaxslararo o'zaro ta'sirning murakkab tizimi sifatida talqin etiladi. Mashhur psixologlar L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, B.G. Ananyev, K. Rojers va boshqa olimlar inson rivojlanishida muloqot- ning hal qiluvchi o'ringa ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Xususan, L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning psixik rivojlanishi avvalo ijtimoiy muhit va muloqot jarayonida shakllanadi. Shuningdek, K. Rojers o'z tadqiqotlarida shaxsning rivojlanishi uchun empatiya, samimiylilik va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarning muhimligini alohida ta'kidlagan.

Zamonaviy ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatadiki, pedagog va o'quvchi o'rtasida ijobiy kommunikativ muhit yaratilgan taqdirdagina o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi, o'quv faoliyatidagi faolligi kuchayadi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Aksincha, muloqotdagi sovuqqonlik, befarqlik, avtoritar yondashuv yoki psixologik bosim o'quvchilarda darsga nisbatan salbiy munosabat, xavotir va motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli pedagogik muloqotning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish bugungi ta'lim tizimining dolzarb ilmiy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, barkamol avlodni tarbiyalash va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jarayonida pedagoglarning kommunikativ kompetentligini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki pedagogning kasbiy mahorati nafaqat fan bo'yicha bilimlari bilan, balki o'quvchilar bilan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



samarali muloqot qila olish, ularning psixologik xususiyatlarini anglash va individual yondashuvni amalga oshirish qobiliyati bilan ham belgilanadi.


Mazkur maqolaning maqsadi pedagog va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, pedagogik muloqotning asosiy tarkibiy qismlarini yoritish hamda samarali kommunikativ munosabatlarning o'quvchi shaxsi rivojlanishi va ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'sirini ochib berishdan iborat. Shuningdek, maqolada pedagogik muloqotning psixologik mexanizmlari, kommunikativ kompetentlik, empatiya, refleksiya va psixologik muhitning ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Pedagog va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar ta'lim jarayonining markaziy komponentlaridan biri hisoblanadi. Psixologik nuqtayi nazardan kommunikatsiya shaxslar o'rtasidagi axborot almashinuvi, o'zaro ta'sir va bir-birini anglash jarayonlarini qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Pedagogik faoliyatda kommunikativ munosabatlar nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

A.N. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, inson faoliyatining barcha shakllari muloqot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida pedagog va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydi. L.S. Vigotskiy esa bolaning psixik rivojlanishi avvalo ijtimoiy muhit va kattalar bilan o'zaro munosabatlar orqali shakllanishini ta'kidlagan. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, pedagog tomonidan tashkil etilgan samarali muloqot o'quvchining mavjud imkoniyatlarini kengaytiradi va yangi bilim hamda ko'nikmalarni egallashiga yordam beradi.

Pedagogik muloqotning asosiy vazifasi o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish, uning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va ijtimoiy tajribani o'zlashtirishiga ko'maklashishdan iboratdir. Shu sababli zamonaviy ta'lim jarayonida kommunikativ munosabatlar insonparvarlik, hamkorlik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida qurilishi lozim.

Pedagog va o'quvchi o'rtasidagi muloqot bir qator psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, ular ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



Psixolog olim B.F. Lomov muloqotni insonning boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatga kirishish ehtiyojidan kelib chiqadigan ko'p qirrali jarayon sifatida izohlaydi. Uning fikricha,





muloqot inson faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsning psixik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Muloqotning kommunikativ xususiyati. Muloqotning eng muhim psixologik xususiyatlaridan biri kommunikativlikdir. Bu jarayonda insonlar o'zaro axborot almashadilar, fikr va mulohazalarini ifoda etadilar. Axborotning samarali uzatilishi muloqot ishtirokchilarining nutq madaniyati, lug'at boyligi, fikrni aniq ifodalash qobiliyati hamda tinglash ko'nikmalariga bog'liq bo'ladi. Ta'lim jarayonida pedagog tomonidan berilayotgan axborotning tushunarli va mantiqiy tarzda yetkazilishi o'quvchilarning bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Shu sababli kommunikativ jarayonning samaradorligi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Interaktiv xususiyati. Muloqotning interaktiv tomoni insonlarning o'zaro ta'siri va hamkorligini ifodalaydi. Muloqot davomida suhbatdoshlar bir-birining xatti-harakati, qarashlari va emotsional holatiga ta'sir ko'rsatadilar. Ushbu jarayon natijasida shaxslararo munosabatlar shakllanadi va rivojlanadi. Pedagogik faoliyatda interaktiv muloqot o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish, mustaqil fikrlashga undash va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Interaktiv muloqot o'quvchilarning faolligi va tashabbuskorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Perseptiv xususiyati. Muloqotning perseptiv tomoni suhbatdoshlarni idrok qilish va tushunish jarayonini anglatadi. Inson muloqot davomida nafaqat eshitadi yoki gapiradi, balki suhbatdoshi haqida muayyan tasavvur ham hosil qiladi. Ushbu jarayon empatiya, refleksiya va identifikatsiya kabi psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Empatiya orqali inson boshqa shaxsning hissiy holatini tushunadi va his qiladi. Refleksiya esa o'z xatti-harakatlari va suhbatdoshning munosabatini tahlil qilish imkonini beradi. Perseptiv jarayonning rivojlanganligi muloqot samaradorligini oshiradi hamda o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Emotsional xususiyati. Muloqot hissiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Har qanday muloqot jarayonida insonlar ma'lum emotsiyalarni boshdan kechiradilar va ularni ifodalaydilar. Ijobiy emotsiyalar muloqotni samarali tashkil etishga yordam bersa, salbiy emotsiyalar kommunikativ to'siqlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ta'lim muhitida pedagogning samimiyligi, xushmuomalaligi va hissiy barqarorligi o'quvchilarning psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada sinfdagi qulay psixologik muhit shakllanadi va ta'lim samaradorligi ortadi. Bundan tashqari muloqotni suhbatdoshga yetkazib berish xususiyatiga qarab axborotni yetkazib berish usulini ham o'rganib chiqamiz. Pedagogik muloqotning eng muhim jihatlaridan biri axborot uzatish va qabul qilish jarayonidir. Pedagog tomonidan berilayotgan ma'lumotlarning tushunarli, mantiqiy va tizimli tarzda yetkazilishi o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborotning emotsional jihatdan boy va obrazli tarzda ifodalanishi uning xotirada uzoqroq saqlanishiga xizmat qiladi.

Pedagog va o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiya o'zaro psixologik ta'sir jarayonini ham o'z ichiga oladi. Pedagogning nutqi, xatti-harakati, munosabati va emotsional holati o'quvchilarning motivatsiyasi hamda o'quv faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ko'pincha pedagogni ideal shaxs sifatida qabul qiladilar va uning xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Shu sababli pedagogning kommunikativ madaniyati tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ munosabatlarning muhim jihatlaridan biri pedagog va o'quvchining bir-birini tushunishi hisoblanadi. O'quvchining yosh, individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan muloqot samaraliroq bo'ladi. Pedagogning o'quvchini tushunishi va uning ehtiyojlariga mos yondashuvi o'quvchida o'ziga nisbatan ishonch hissini shakllantiradi.

Zamonaviy pedagog faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri kommunikativ kompetentlikdir. Kommunikativ kompetentlik pedagogning o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi.

Empatiya pedagogik faoliyatning muhim psixologik omillaridan biridir. Empatiya orqali pedagog o'quvchilarning ichki kechinmalari, hissiy holati va psixologik ehtiyojlarini tushunishga harakat qiladi. K. Rojersning gumanistik psixologiya nazariyasida empatiya samarali muloqotning asosiy sharti sifatida e'tirof etiladi. Empatik pedagog:

- o'quvchilarning fikrlarini diqqat bilan tinglaydi;
- hissiy qo'llab-quvvatlaydi;
- tanqid qilishdan ko'ra rag'batlantirishga ko'proq e'tibor qaratadi;
- har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga oladi.

Pedagogik takt esa pedagogning muomala madaniyati, vaziyatni to'g'ri baholashi va muloqot jarayonida me'yorlarga rioya qilishi bilan tavsiflanadi. Pedagogik taktning yuqori darajada rivojlanganligi o'quvchilar bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish imkonini beradi.

Pedagogik muloqotda verbal va noverbal vositalar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Verbal kommunikatsiya nutq vositasida amalga oshiriladi. Pedagog nutqining ravonligi, aniqligi, mantiqiyli va ta'sirchanligi o'quvchilarning bilimlarni qabul qilish darajasiga ta'sir etadi. Nutqning emotsional jihatdan boyli va o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Noverbal vositalarga mimika, jestlar, tana holati, ko'z qarashi va ovoz ohangi kiradi. Psixologlarning ta'kidlashicha, muloqot jarayonida uzatiladigan axborotning katta qismi noverbal vositalar orqali ifodalanadi. Pedagogning samimiy tabassumi, ijobiy yuz ifodasi va ochiq tana holati o'quvchilarda ishonch hissini shakllantiradi. Pedagogik muloqot va motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlik mavjud.

Ta'lim motivatsiyasi o'quv faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi. Pedagog va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy kommunikativ munosabatlar ichki motivatsiyaning shakllanishiga yordam beradi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon qila oladigan, xatolari uchun kamsitilmaydigan va qo'llab-quvvatlanadigan muhitda faolroq bo'ladilar. A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko'ra, insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun xavfsizlik, hurmat va tegishlilik ehtiyojlari qondirilishi zarur. Pedagog tomonidan yaratilgan ijobiy kommunikativ muhit aynan shu ehtiyojlarning qondirilishiga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Pedagogik muloqot jarayonida ayrim kommunikativ to'siqlar ham yuzaga kelishi mumkin. Ular quyidagilar:

- avtoritar boshqaruv uslubi;
- pedagogning o'quvchi fikrini e'tiborsiz qoldirishi;
- yosh va individual xususiyatlarni hisobga olmaslik;
- emotsional zo'riqish va stress;
- salbiy baholash va kamsituvchi munosabat;
- tinglash madaniyatining pastligi.

Mazkur to'siqlar o'quvchilarda xavotir, ishonchsizlik, passivlik va ta'limga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois pedagog kommunikativ to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha muntazam ish olib borishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagog va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi eng muhim psixologik omillardan biri bo'lib, u o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar samarali pedagogik muloqot o'quvchilarning motivatsiyasi, akademik muvaffaqiyati va shaxsiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu sababli zamonaviy pedagog o'zining kommunikativ kompetentligini muntazam ravishda takomillashtirib borishi zarur.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2021.
3. Leontev A. A. Pedagogik muloqot psixologiyasi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1996.
4. Kan-Kalik V.A. O'qituvchi faoliyatida pedagogik muloqot. – Moskva: Pedagogika, 1987.
5. Rojers K. Shaxsning shakllanishi. – Moskva: Progress, 1994.
6. Vigotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
7. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. Xakimova, S. S. Q. (2025). Inson temperamentining psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni. Science and Education, 6(11), 981-985.